

YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–sentabrida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 27 419,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 116,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi
va o'sish sur'atlari**

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YAHM	22 008,2	27 419,8	106,8
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	21 309,9	26 413,3	106,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	698,3	1 006,5	107,2
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	21 309,9	26 413,3	106,8
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 609,8	12 247,1	105,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 429,6	6 376,9	102,7
	sanoat	3 638,1	4 123,1	99,7

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	1 791,5	2 253,8	108,9
Xizmatlar		6 270,5	7 789,3	112,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 517,3	1 887,7	111,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 149,8	1 546,4	122,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 603,4	4 355,2	109,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 006,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan ot 5,4 % ga yuqoridir.





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 46,4 % ni, sanoat tarmog'i 15,6 % ni, qurilish 8,5 % ni va xizmatlar sohasi 29,5 % ni tashkil qildi.




**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)**

		2020- yil	2021- yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,8	96,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	3,7
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	45,1	46,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25,5	24,1
	sanoat	17,1	15,6
	qurilish	8,4	8,5
	Xizmatlar	29,4	29,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,1	7,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	5,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	16,9	16,5




**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2020- yil




2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 105,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 46,4%), sanoatda – 99,7 % (15,6%), qurilishda – 108,9 % (8,5 %), xizmatlar sohasida – 112,3 % ni (29,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,6 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 122,7 % (5,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 109,2 % dan (16,5 %) iborat bo'ldi.



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,4 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 1,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,5 f.p. ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. ga ko'paydi.




**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)**




2021- yilning yanvar-sentabrda YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 116,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 120,9 % va qurilishda – 115,5 % qayd etildi.



2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi (YAQQga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 76,8 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrda – 76,0 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.